SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 12 - oktabr 407-9-124-Q/22 Guliston tumani hokimligi

Yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-son (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 15-son, 197-modda; 2015-y, 52-son, 645-modda) Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-son (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami, 2016-y, 3-son, 23-modda; 2017-y, 36-son, 958-modda), qarori ijrosini ta’minlash, Guliston tuman Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (keyingi o‘rinlarda IIB YHXG deb yuritiladi)ning 2022-yil 31-avgustdagi 40/3125-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Guliston tuman IIB YHXGning 2022-yil 31-avgustdagi 40/3125-sonli aloqa xati inobatga olinsin.

2. 4P-26 avtomobil yo‘lida joylashgan *(2,12,6,30-umumiy o‘rta ta’lim maktablari)* oldiga o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash maqsadida “30 yo‘l belgisi”, “piyodalar yo‘l belgisi” va “piyodalar o‘tish uchun yotiq chiziqlar chizish” yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat etilsin.

3. Guliston tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (J.Raximqulov) ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Guliston tuman IIB YHXG (Sh.Ibragimov)ga taqiqlov o‘rnatilgan avtomobil yo‘lida xarakat xavfsizligini ta’minlash va doimiy ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklansin.

5. “Guliston hayoti” gazetasi tahririyati (B.Norjigitova) va tuman hokimligi matbuot kotibi (X.Chelibayev) ushbu qarorning tuman gazetasida chop etilishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M. Urinbayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Begimkulov**